



YOSHLAR ORASIDA JINOYATCHILIKGA QARSHI

KURASHISHDA DOLZARB MUAMMOLAR

Xabibullayev Bekzod Sherzodovich

TDYU huzuridagi M.S. Vosiqova nomidagi

akademik litsey 1-bosqich 11-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar orasida jinoyatchilikga qarshi kurashishdagi dolzarb muammolarga to'xtalib o'tiladi. Yoshlar orasida jinoyat-chilikga qarshi kurashish ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ham dolzarb muammolar qatorida turadi. Yoshlar orasida jinoyatchilik avj olishi avvalambor yoshlar orasida savodsizlikga hamda giyohvandlik yoki qumorbozlik kabi yomon illatlarning rivojlanishiga keng yo'l ochib berishi hech kimga sir emas. Yoshlar orasida jinoyatchilikga qarshi kurashishdagi muammolar qatorida ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ta'lim tizimidagi muammolar, oilaviy muhitdagi nizolar, jazo tizimi va undagi muammolar, huquqni muhofaza qilishdagi kamchiliklar shuningdek psixologik muammolar, giyohvandlik, axborot texnologiyalarining salbiy ta'siri, huquqiy saviyaning pastligi kabi dolzarb muammolar mavjud. Mazkur maqolada ushbu muammolar haqida va ularni bartaraf etish uchun ko'plab sohalarda islohotlar zarurligi to'g'risida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, giyohvandlik, psixologik muammolar, saviyaning pastligi.



Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar

Yoshlar orasida jinoyatchilik avj olishida eng katta ta'sir ko'rsatayotgan omil bu albatta ijtimoiy-iqtisodiy muammolardir. Ya'ni o'smirlarning xulq atvoriga ularning atrof muhiti va ularning ijtimoiy kelib chiqishi ta'sir ko'rsatmay qolmaydi albatta. Ko'p sonli o'smirlarda o'zini ko'rsatib qo'yish maqsadida jinoiy to'dalarga yoxud jinoiy harakatlarga aralashib qolish holatlari kuzatiladi. Bunday holatlarda jinoyatga yosh huquqbuzarlarning atrofidagi insonlar xususan ularning ota-onalari, qarindoshlari, do'stlari, sinfdoshlari va boshqa yaqin insonlarining hatti-harakatlari sabab bo'lishi mumkin. Aksincha, jinoyatning motivi ularning moliyaviy ahvoliga borib taqalishi ham mumkin. Bunday muammolarni bartaraf etishda boquvchisini yo'qotgan yoki kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan moddiy yordam ko'rsatish shuningdek yoshlar orasida reydlar va profilaktika jarayonlarini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Ta'lim tizimidagi muammolar

Albatta ta'lim tizimi ham yoshlar ongini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Jamiyatdagi ta'lim tizimini rivojlantirish yoshlarni ta'limga qiziqtirish va ta'lim tizimidagi bir qancha muammolarni bartaraf etish bilan nafaqat yoshlar orasidagi jinoyat ko'rsatkichlarini kamaytirishga balki jamiyatning boshqa sohalaridagi rivojlanishlarga ham erishamiz. Ta'lim tizimida avvalambor yoshlarni kitobga qiziqtirish, kasb tanlashda ko'maklashish, o'z tanlagan kasbi haqida ma'lumotlar berish va lozim bo'lsa shu kasb egalari bilan uchrashtirish, suhbatlar tashkillashtirish kabi islohotlarni amalga oshirishimiz darkor.

Oilaviy muhitdagi nizolar

Oilaviy muhitdagi nizolar ham yoshlarni jinoyat qilishga undashi mumkin. Ya'ni tajovuzkor oilaviy muhitda ulg'aygan yoshlar ko'pincha jinoyat qilishga moyil bo'lishadi. Oiladagi doimiy urush, janjallar yoshlar ongida, fe'l atvorida turli xil



muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa o'z o'rnida jahlni tiyib turolmasdan yoki qasddan jinoyat sodir etish bilan tugashi tabiiy hol. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari yoki huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tartibga solish ishlari amalga oshirilishi kerak

Jazo tizimi va undagi muammolar

Yoshlar orasida jinoyatchilikni oldini olish va sodir etgan jinoyatlari uchun ularni axloqan tuzatish borasida jazo tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikda yoshlarga, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazo tizimi alohida toifa sifatida belgilangan. Jazoning muqarrarligi haqida qonundagi prinsiplar jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo qo'llash shartligini anglatmaydi, bu esa, yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni faqat jazo qo'llash orqali tuzatib bo'lmasligini bildiradi. Aslida yoshlarga qo'llanadigan jazoning maqsadi ularni tarbiyalash va yangi jinoyat sodir etilishining oldini olishdir. Shu sababli agar yoshlar o'z qilmishining ahamiyatini tushungan va pushaymon bo'lganda, ularga nisbatan jazo qo'llamasdan, boshqa ta'sir choralarini qo'llashni, xususan jamoat tarbiyachisi tayinlash, tarbiya uylariga joylashtirish, yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatda katta yoshlilarning roli borligini aniqlab, choralar ko'rishni kengaytirilishi ahamiyatga ega. Agar jinoyat sodir etgan yoshlarni jazo qo'llamasdan tuzatish mumkin bo'lmasa, ularga og'irroq jazo qo'llash maqsadli bo'ladi.

Huquqni muhofaza qilishdagi kamchiliklar

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarining yoshlar orasida jinoyatchilikni kamaytirishda o'zni beqiyos. Huquqni muhofaza qilish organlarining yoshlarga yetarlicha e'tibor bermayotgani ular bilan shug'ullanmayotgani ham jinoyat ko'rsatkichlarini ortishiga zamin yaratadi. Profilaktika chora tadbirlari, reydlar turli xil yoshlarni jinoyat qilmaslikka chaqiruvchi tadbirlar tashkil etilmas ekan yoshlar orasida jinoyat ildiz otaveradi.



Shuningdek yosh huquqbuzarlarga nisbatan davlat tomonidan sanksiya qo'llanilishi, jazoni muqarrarlighi ta'minlanishi ham jinoyatchilik ko'rsatkichlarini pasaytirishga yordam beradi.

Psixologik muammolar

Yoshlarning psixologik ahvoli ham jinoyat sodir etishda katta rol o'ynaydi. Ularning ruhiy salomatligidagi muammolar xususan depressiya, stress yoki ruhiy holatning buzilishi jinoyat sodir etishga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek yoshlarda o'zini jamiyatga kerak emasdek his qilish, jamiyatdan norozilik ham yoshlarda tajovuzkorlikni oshiradi.

Giyohvandlik

Turli xil narkotik moddalarga o'rganib qolish, alokogol mahsulotlariga ruju qo'yish shuningdek tamaki mahsulotlarini doimiy iste'mol qilish ham jinoyatga zamin yaratishi mumkin. Odatda giyohvandlikka o'rganib qolgan yoshlar orasida jinoyatchilik avj oladi. Albatta yoshlar orasida narkotik moddalarini oldi-sotdisini oldini olmay turib, ularni giyohvandlikdan olib chiqmay turib yoshlar orasida jinoyatchilikka qarshi kurashish samarasiz bo'ladi.

Axborot texnologiyalarining salbiy ta'siri

Bugungi kunda axborot texnologiyalari shuningdek ijtimoiy tarmoqlar, Internet ommalashib ketdi. Bunday ommalashishning foydalari ham bor lekin salbiy jihatlari ham yo'q emas. Internet tarmoqlarida turli xil zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi g'oyalar bilan yo'g'rilgan video lavhalar yoshlarimiz ongini zaharlamoqda. Bu esa o'z navbatida hali o'zligini to'liq anglab yetmagan yosh avlod ongida jinoyatchilikka qiziqish ruhini shakllantirayotgani hech kimga sir emas. Shuningdek ijtimoiy tarmoqlar kiberjinoyatlarga ham yo'l ochib bermoqda. Bu esa yoshlar orasida internet orqali firibgarlik yoki boshqa turdagi kiberjinoyatlar ko'payishiga zamin yaratyabdi.



Huquqiy saviyaning pastligi

Huquqiy saviyaning pastligi, huquqiy ong yetishmasligi ham yoshlar orasidagi jinoyatlar ortishida asosiy rol o'ynayapti. Albatta qonunni bilmaslik jazodan ozod qilmaydi. Yoshlarimiz orasida qonunlarni bilmaslik, qiziqmaslik va ularga hurmat ruhi bilan qaramaslik jinoyatchilikning ildiz otishiga zamin yaratib beradi. Chunki qonunlarni bilmaslik jamiyatda ijtimoiy adolatsizliklarga, jinoyatchilikning oshishiga, fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishiga sabab bo'ladi. Bunday muammolarni hal etishda huquqiy axborotni ommalashtirish ya'ni yangi qonunlarni xalqqa yetkazadigan onlayn platformalar tashkillashtirish, fuqarolarning huquqiy faolligini oshirish jumladan mahallalarda huquqiy trening va seminarlar o'tkazish, yoshlarni huquqiy targ'ibot loyihalariga jalb etish muhim rol o'ynashi mumkin.

Xulosa

Yoshlar orasida jinoyatchilikni ortishi dolzarb muammolar qatorida turadi. Yoshlar orasida jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqat qattiq jazo tizimi va ularni qattiq nazoratga olish, reydlar va profilaktika jarayonlari olib borishni tashkil etish emas balki ularga huquqiy bilim berish, huquqiy saviyalarini oshirish, ta'lim tizimini rivojlantirish ham muhim o'rin tutadi. Shuningdek yoshlar orasida jinoyat ko'rsatkichlarini pasaytirishda ularni giyohvand moddalar domidan chiqarish va psixologik holatlarini yaxshilash ham bizga bu sohada ancha yordam beradi. Shuningdek bu muammolarni bartaraf etish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas balki barchamizning oldimizdagi vazifamiz va burchimiz hisoblanadi. Zero jinoyatchilik ildiz otgan jamiyatda rivojlanish, o'sish bo'lmaydi.